



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



HOJILAR MUBORAK SAFARDAN QAYTDI

17-19-iyul kunlari Samarcand xalqaro aeroportida muborak Haj ziyoratini ado etib qaytgan yurtdoshlarimiz ehtirom bilan kutib olindi. Ulug' safar davomida vattandoshlarimiz Saudiya Arabistonining Madina va Makka shaharlarda bo'lib, Haj amallarini mukammal ado etishdi.

- Kecha "Jidda-Samarcand" aviayo'nalihi bo'yicha yurtimizga qaytdik, - deydi "Nurobod" gazetasi muharriri Nodira Botirova. - Turmush o'rtog' im bilan o'n yildan beri shu qutlug' ziyoratni orzu qillardik. Nasib etgan ekan, bu yil niyatlarimiz amalga oshdi. Shu kunlarga yetkazganiga shukr.

Bu yil viloyatimizdan 912 nafar fuqaroga haj ziyoratini ado etish nasib etdi. Ular Arafot tog'i, Mino va Muzdilifa vodiylarida ibodatlar chog'ida bugungi kunlar uchun shukronalar aytib, Allohdan yurtimizga fayz-baraka, xalqimizga farovonlik so'rav duo qildilar. To'iqin SIDDIQOV.

Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi xodimlari, xususan, viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasining paxtachilik bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, paxtachilik klasterlari rahbarlari, fermerlar o'zaro tajriba almashish maqsadida Sirdaryo tumanida bo'ldi.

Viloyat hokimining o'rnbosari Sh.Xudoyberdiyev bosh bo'igan samarqandlik agrar soha xodimlari dastlab tumandagi "PENG SHENG" O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasida ishlab chiqarilayotgan va qayta ishlanayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan tanishdi. Xususan, qo'shma korxona tasarrufidagi xo'jalikda bo'lib, bu yerda chigit ekilishi vaqtida seyalkalarning tomchilikat sug'orish texnologiya va uskunalarini qanday yerga joylashtirgani, bu usulning suv resurslari va g'o'za qator oralariga ishlov berishdagini tejamkorligi, kam xarajat qilib, ko'p foyda olish jarayonlarini kuzatishdi.

- Paxta klasteri rahbar va mutaxassislar, fermerlarimiz ushbu usulning har tomonlama foydali ekanligiga guvoh bo'lishdi, - deydi viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i S.Hakimov. - Bu usulda ekilgan maydonlarda g'o'zaning holati boshqa maydonlardagiga qaraqanda ancha bo'liq. Ya'ni, g'o'za shoxlari ko'p, ko'saklar katta, hosildor va ertapishek ekani yaqqol ko'rinish turibdi. Kelgusi yilda viloyatimizning paxta yetishtirilayotgan barcha tumanlariagi ma'lum maydonlarda shu usulda g'o'za yetishtirishni yo'liga qo'yamiz.

O'z muxbirimiz.



Yengil atletikaning uch hatlab sakrash yo'nalihi bo'yicha yoshlar o'rtasida Osiyo va jahon championi, "Kon-yá-2021" Islom birdamligi o'ynlari g'olib samarcandlik Sharifa Davronova Osiyo yengil atletika assotsiatsiyasi tomonidan "Yilning eng yaxshi yosh yengil atletikachisi" deb e'tirof etildi.

Sharifa DAVRONOVA –



OSIYONING ENG YAXSHI YOSH YENGIL ATLETIKACHISI

Joriy yil Osiyo miqyosida yoshlar o'rtasida o'tadigan musobaqaqlar yakuniga yetdi. Sharifa poytaxtimiz mezonlik qilgan Osiyo championatida 13,99 metr natija qayd etgan edi. Bu yil davomida nafaqat qit'a, balki jahon miqyosida yoshlar toifasidagi eng yuqori ko'rsatkich bo'lib turibdi.

Sayyor qabuldan so'ng

MUROJAATLAR NEGA KO'P?

Mustaqillik mahallasi tuman markazida yashashgan. Keyingi yillarda olib borilgan qurilish-bunnyodkorlik ishlari natijasida hudud birmuncha obod bo'lgan. Markaziy va ayrim ichki ko'chalar asfaltlangan. Aholining turmush farovonligini yaxshilash maqsadida zarur choralar ko'rildan. Ammo viloyat hokimining sayyor qabulida eng ko'p, ya'ni 45 ta murojaat ayanan shu hudud aholisidan tushgan. Buning sababini mahalla fuqarolar yig'ini raisi Hikmatilla Qosimov shunday izohlaydi:

- Avalo, odamlar quyl sharoitlarda yashashni istaydi. Atrofdagi o'zgarishlarga befarq emas. Qolaversa, sayyor qabul mahallamizga yaqin joyda o'tkazildi. Murojaatchilar bar-chasi mahalla yoki tumanda hal etib bo'lmaydigan masalalarini o'rtaq tashlagan. Jumladan, sud-huquq, qurilish, elektr energiyasidagi muammolar. Sayyor qabuldan keyin elektr tarmoqlari korxonasi xodimlari kelib, murojaatlarni o'rungi. 3 ta transformator, 95 ta beton ustun va shunga yarasha elektr simlari zarur ekanligi aniqlandi va bu muammolarga yechim topishga kirishildi. Bugungi kunda 20 ta beton ustun Amir Temur guzari uchun ajratildi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Payariqdagi sayyor qabulda bir mahalladan

40 dan ziyod murojaat bo'lgan

Xabaringiz bor, 5-iyul kuni viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Payariq tumani markazida aholi uchun navbatda -gi sayyor qabulini o'tkazdi. Unda 1 ming 600 dan ziyod murojaat ro'yxtatga olingan. Murojaatlarning 1 ming 200 tasi tuman aholisidan tushgan. Mustaqillik va Farovon mahallalarining har biridan turli masalardagi 40 dan ziyod murojaat qayd etilgan.



2023-yil 20-iyul, payshanba,
86 (23.807)-son

KUN
HIKMATI
Diplomga
qiziqib, bilim
kerakligini
unutib
qo'yidik

UCH OYLIK YOZGI TA'TIL ZARURATMI YOKI AN'ANA?

↓ "Zarafshon"
bong uradi

YOXUD HAMMA BILADIGAN, LEKIN HECH KIM SHUG'ULLANMAYDIGAN MUAMMO XUSUSIDA

Yaqinda Amerikada oilaviy yashayotgan tanishim bilan suhabatda bo'ldim. "Yozgi ta'tilda bolalaringiz zerikkadir, qishloqqa jo'natmaysizmi?", degan savolimga u "Bu yerda ta'til bekorchilik uchun berilmaydi", deya javob berdi. Uning aytishicha, Amerikada bolalar yozda ham maktabdan uzoqlashmay, turli to'garak va qo'shimcha mashg'ulotlarda qatnashadi. Ayni amaliyot o'zlashtirishi sost bolalar uchun majburiy hisoblanarkan. Tabiiyki, bu menda qator savollarni keltirib chiqardi. Amerikalik o'qituvchilar yozda dam olishmaydim? Umuman, yozgi ta'til o'quvchi va o'qituvchi hayotida qanday o'rinn tutadi?



XORIJDAGI MAKTABLAR HUVULLAB QOLMAYDI

Mazkur savollar asosida ma'lumot to'plashga harakat qildim. Keling, avvalo, Amerikadagi yozgi ta'til masalasiga batafsilroq to'xtalamiz. Qo'shma Shtatlardagi ta'lim ta'tillari haqidagi bir nechta manbalarni solishtirib bildimki, bu yerda har bir shtat ta'tillar vaqtini va muddatini o'zi belgilari ekan. Uning muddati shuningdek, maktab o'quvchilarining yoshiga qarab ham farqlanishi mumkin. Aytilik, boshlang'ich sind o'quvchilariga ko'proq ta'til berilsa, yuqori sindagilarga teskarisi. Yozgi ta'til ko'pi bilan 9-10 hafta davom etadi. Aksariyat shtatlarda darslar avgust oyidan boshlanadi. Yana savol tug'iladi, amerikalik o'quvchilar kamroq dam oladimi? Yo'q, umumiy hisobda u verdagi o'quv kunlari (180 kun davlat muassasalarini va 170 kun xususiy maktablarda) biznikidan kamroq. Faqat Amerikada ta'tillar vaqtini nisbatan mutanosib taqsimlangan.

— 14 yildan buyon oliban bilan Amerikadim, - deydi Nyu-York shtatidagi 180-davlat maktabida hamshira bo'lib ishlayotgan Nigora Indiamanova. — Bizning maktabda yozgi ta'til 28-iyunda boshlanib, 8-sentabrqa qadar davom etadi. Bu oraliqda maktabning huvullab qolganini ko'rmasligi, yozgi ta'tilda uyida uyliga qolgan o'quvchilarining ko'pchiligi vaqtini shu yerda o'tkazadi.

Aytish joizki, yoshlarning bo'sh vaqtini maqsadli tashkil etish hukumat nazoratida hamda maktablarda buning uchun barcha sharoitlar yaratiladi. To'garaklar yil davomida faoliyatini to'xtatmaydi.

Ta'limga haqidagi gapirganda, albatta, Yaponiyani tilga olmaslikning iloji yo'q. Buni qarangki, kunchiqar mamlakatda o'quv yili sentabrdan emas, aprel oyidan boshlanar ekan. Yozgi ta'til esa 20-iyuldan avgust oyining oxirigacha (besh hafta) davom etadi.

Darvoqi, Yaponiyadagi maktablarda darslar ikki navbatda o'tiladi. O'quvchining erta tongdan kechgacha maktabda bo'lishi oddiy hol va bu hech kimni xavotirga solmaydi. Aksincha, ta'limga maskanida bolalarning vaqtini to'g'ri tashkil etiladi.

Guvohi bo'lganingizdek, yapon maktablaridagi yozgi ta'til ham bizning standartlarimiz bo'yicha juda qisqa. Ularning fikricha, o'quvchining hordiq chiqarishi uchun besh hafta ortig'i bilan yetadi. Shunga qaramay, ta'tilda bolalarning aksariyati maktabga boshishda davom etadi. Sababi, dam olish kundalarda u yerda o'qituvchilar yoki qo'shimcha taklif etilgan murabbiylar boshchiligidagi "qiziqish" guruhlari ochiladi. Shu tarzda yoshlar yangi faoliyatni ham o'ziga tanish muhitda o'rganishi mumkin bo'ladi.

(Davomi 4-sahifada) >>>

Payariqdagi sayyor qabulda bir mahalladan

40 dan ziyod murojaat bo'lgan

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

AMIR TEMUR NOMLI GUZARDА ELEKTR TARMOG'I ACHINARLI AHVOLDA

Sayyor qabulda mahallaning Amir Temur guzarda yashovchi fuqarolar bejiz elektr energiyasidagi muammolar bo'yicha murojaat qilmagan ekan. 2000-yillarning boshida qurilgan uy-joylar uchun elektr tarmog'i aholi tomonidan, mu-

taxassislarning
ishtirokisiz
tortil-gani



bu
yerdagi
yaroqsiz
simyog'ochilar va
inson hayoti uchun xavf

solib turgan simlardan bilinib turdi.

- 20 yildan ziyod vaqtidan beri shu guzarda yashaymiz, - deydi murojaat qilgan fuqarolardan biri. - Toza ichimlik suvi yo'q. Simyog'ochlarning ahvollari achinari. Yangi beton ustun o'rnatish bo'yicha murojaat qildik. Mas'ullar tuman markaziga ustunlar keltirilgani, agar keragini o'zimiz olib kelmasdan, keyingi bosqichga qolib ketishi mumkinligini aytishdi. Shundan so'ng pul yig'ib, traktor gaplashib, 20 ta beton ustunni guzarmizga keltirdik.

HAMMA MUAMMOLAR HAM MAHALLADAN TASHQARIGA CHIQMAYDI


Bu gapni mahalla fuqarolar yig'inining xotin-qizlar faoli aytidi. Uning ta'kidlashicha, kayoni onaxonlar, nuroniy otaxonlar ko'magi bilan ko'pgina masalalar mahallaning o'zida hal etiladi.

- Mahalla fuqarolari orasida ishini tezroq bitirish payida bo'lgan, shuningdek, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan odamlar ham yo'q emas, - deydi u. - Har bir masala birdaniga yechim topib bo'lmasi, bosqichma-bosqich maqsadga erishish mumkinligi ularga tushuntirilyapti. Muammolarning aksariyati bekorchilikdan kelib chiqadi. Shuning uchun ham fuqarolaringning bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratayapmiz. Yordanga muhtoj xotin-qizlar "Ayollar daftari"ga kiritilgan. Ulardan biri bilan suhbatlashganimizda tikuvchilik qo'lidan kelishi, ammo zamonaviy tikuv mashinasi yo'qligini aytidi. Biz unga imtiazli kredit asosida tikuv mashinasi olishiga ko'maklashdik. Hozir u kuniga 100 ming so'mdan ziyod pul topyapti.

BINO DEYARLI TAYYOR, AMMO...

Mahallada ishbilarni tadbirkorlar, saxovatpesha insolarni ko'p. Ammo mahalla fuqarolar yig'in o'z binosiga ega emas edi. Oqsoqollar taklifi bilan bo'sh turgan joyda ikki qavatlari imorat qad rostladi.

- Buning uchun



homiy-
lar hi-
sobidan 230
million so'm mablag'

sarflandi, - deydi mahalla faoli G'aybulla O'tashev. - Aholimiz birlashti. Kimdir g'ishti, kimdir sementini olib kelgan bo'lsa, yana

To'loqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

kimdir o'z mehnati bilan qurilishga hissa qo'shdi. Binoni pardozlash va jihozlash ishlarigina qolgan, xolos. Biz bir guruh nuroniyalar shu ishni tezroq oxiriga yetkazish uchun yordam so'rab, sayyor qabulda hokimga murojaat qildik. U mas'ullarga topshiriq berdi. Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i binoning hashar yo'lli bilan shu holatga keltirilganidan minnatdor bo'lib, qolgan ishlarga, albatta, ko'mak ko'rsatilishi aytdi.

FAROVON! MAHALLA SHU NOMGA MUNOSIBMI?

Tumandagi Farovon mahallasi fuqarolar sayyor qabulda eng ko'p murojaat qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda. Ular 41 ta masala bilan qabulga borgan.

- Mahallamizning markazi va ichki ko'chalarining jami uzunligi 24,5 kilometri tashkil etadi, - deydi mahalla raisi Akmal Mamadaliyev. - Shundan 23,5 kilometri asfaltlandi. Qolgan qismiga ham sayyor qabulagi murojaatdan keyin asfalt yotqizilishi ma'lum qilindi. Aholimizning turmush farovonligi kundan-kunga ortib bor-yapti. Ammo boqimandalik kayfiyatida gi ba'zi fuqarolaramiz borki, ularga gap uqtirish qiyin bo'lyapti. Afsuski, mahallamiz ayollari orasida sayyor qabullarda tinmasiz murojaat qiladiganlari ham bor. Yordanga muhtoj bir ayloga sayyor qabul o'tkazilishidan bir necha kun avval tadbirkorlar tomonidan 10 million so'mga yaqin homiylik yordami ko'rsatildi. Ammo u yana moddiy yordam so'rab murojaat qilgan.

Yana bir ayl be-pul, sovg'a sifatida olgan tikuva mashi-nasini, yana bir fuqaro homiylar tomonidan berilgan qoramolni sotib yuborgani aniqlandi.

ENDI ELEKTR ENERGIYASIDA MUAMMO BO'LMDAYI(MI?)

Boshqa mahallalar-da bo'lgani kabi Farovonda ham elektr energiyasida gi muammolar eskirgan sim va simyog'ochlar hamda transformator bilan bog'liq. Mahallaning bir guruh fuqarolari shu masalada sayyor qabulda hokimga murojaat qildi va ertasi kuniyoq mahallaga zarur bo'lgan yangi beton ustunlar keltirildi.

- Mahallamiz aholisini, ayniqsa, qish paytlarda elektr energiyasidagi uzhishlar qiyaydi, - deydi Ibdulla Umirov. - Bunga sabab, albatta, elektr simlari va simyog'ochlarning eskirgani. Shuning uchun sayyor qabulda qo'shnilarimiz bilan birga mazkur masalada murojaat qildi. Bugungi kunda yangi beton ustunlar keltirildi, endi mas'ullar yangi transformator ham o'rnatib berishni va'da qilishdi.

MAJBURLIGIMDAN MUROJAAT QILDIM"

Shu mahallaning yana bir fuqarosi Toshniyoz Quvonov yoshi 60 ga yaqinlashgan bo'lsa ham u-bu ustachilik ishlarini qilib, ro'zg'or tebratadi. Turmush o'rtoq'i oddiy sex ishchisi. Ularning ikki farzandi bor. Hali vogoya yetmagan.

- Topayotgan pulimiz ro'zg'orga yetib turibdi, - deydi u. - Ammo ottirtilishing iloji bo'lmayapti. Uyimning tomonidan qishda chakka o'tyapti. Shiferlarini yangilashim kerak edi. Ta'mirlash qo'limdan keladi-yu, qurilish materialiga mablag' kerakligi uchun sayyor qabulda hokimga murojaat qilishga majbur bo'ldim. Birinchi marta bu ahvola tushdim. Meni to'g'ri tushungan mas'ullar va homiylar ko'magi bilan uymiga 40 dona shifer keltirildi. Bunda juda xursand bo'ldim. Endi muammo yo'q.

Ha, fe'il, yashash sharoiti turlicha odamlar bor. Muammolari va ularga yechim ham har xil bo'lishi mumkin. Niha bo'lganda ham o'tkazilayotgan sayyor qabullarning aholi uchun nafi tegyapti. Ammo achinari, boqimandalik kayfiyatida gi ba'zi "uddaburon"larning murojaatlari tugama-yapti. Ayrim hollarda esa haqiqiy muhtojlar e'tibordan chetda qolyapti. Xulosa chiqarish har kimning o'ziga havola.

Fazliddin
RO'ZIBOYEV.

"O'quvchilar ta'tilga chiqqach, maktab sport zalini ta'mirladik. Endi yangi o'quv yili boshlanmaguncha zalgaga hech kimni kiritmayman". Bu gap maktab direktori tomonidan aytildan.

Yaqinda tahriri-yatimizga o'nga yaqin mahalla raisi uyushmagan yoshlar maktab sport zaliga kiritilmayotganligi yuzasidan murojaat qildi. Holatga aniqlik kiritish maqsadida mahallardan biriga bordik.

MAHALLA YOSHLARI maktab sport zaliga nega kiritilmayapti?

Ma'lum bo'lishicha, mahallada sport maydonchasi yo'q. Shu bois mahalla yoshlarini maktabning sport zalidan foydalanyapti.

- Darsdan keyin maktab sport zali doim mahalla

yoshlarini ixtiyorida edi, - deydi maktab direktori. - Ularga maktabimizning jismoni tarbiya o'qituvchilarini ham biriktirilib, yil boshidan buyon sport musobaqalari, turli ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Natijada yaqinda ta'mirlangan sport zalning pol qismi, devorlari yana ta'mirtalab, jihozlar esa yaroqsiz holga kelib goldi. Zalni ta'mirlash va sport anjomlari sotib olishga kelganda esa mahalla raisi bu masalada hech qanday yordam bera olmasligi va bu bo'yicha hech qayerda yozilмаганин ro'kach qildi. Shundan so'ng sport zalni o'zimiz ta'mirladik. Endi yangi o'quv yili boshlanmaguncha zalgaga hech kimni kiritmayman.

Bu yerda maktab direktoriga ham, mahalla raisiga ham e'tirozimiz yo'q. Chunki muammoning asosiy sababi boshqa.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 30-oktabrda "Sog'lim turmush tarzini keng tabtiq etish va omavvy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida 2020-yil 14-dekabrdagi viloyat xalq ta'limi, jismoni tarbiya va sport hamda Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmalari tomonidan "Samarqand viloyatidagi ta'lim muassasalarining sport, faollar zallarida mahallalardagi yoshlarning san'at va sport bilan muntazam shug'ullanishlarini ta'minlash to'g'risida"gi qo'shma qarori qabul qilingan.

Unga ko'ra, hududlardagi kasb-hunar va ta'lim muassasalarining sport hamda faollar zallarini mahalladagi yoshlar yetakchilari ixtiyoriga o'tkazish va mahalla yoshlarining soat 16:00 dan kech soat 23:00 gacha beminat foydalanimishni ta'minlash, shuningdek, aholi va yoshlar o'tasida ommaviy sport musobaqalari

tashkil qilinishi belgilangan. Ammo boshqarmalar tomonidan qabul qilingan qo'shma qarorda mahalla yoshlari foydalangan sport va faollar zallarini ta'mirlash hamda yetkazilgan zararni tegishli tartibda qoplash to'g'risida hech qanday band kiritilmagan. Shuning uchun ham mahalla va maktab o'tasida kelishmovchiлик kelib chiqyapti. O'rada esa yoshlar sarson.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmuni tashkil etish maqsadida omavvy sport musobaqalari va turli ko'rik-tanlovlari o'tkazish an'anaga aylandi. Shu bois yuqorida kabi muammolarga barham berish kerak. Buning avvalo, tegishli boshqarmalar tomonidan qabul qilingan qarorda foydalanimigan inshootlarni kelishilgan holda ta'mirlash chorasi ko'rish yoki hokimliklar tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi lozim.

Fazliddin
RO'ZIBOYEV.

Viloyatimiz dehqonlari joriy yilda 94 ming 230 hektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi.

Joriy yilda viloyatimizda 2020-yilga nisbatan 11 ming 800 hektar va 2016-yilga nisbatan 23 ming 111 hektar ko'p maydonda takroriy ekin ekildi. Jumladan, 3,9 ming hektardan ortiq maydonda sabzavot yetishtirilmoqda. 15 ming hektar maydonga kartoshka ekildi.

BU YIL 90,4 MING GEKTARDA TAKRORIY EKIN EKILDI

Suv tanqisligi muammo bo'lmaydim!

- Viloyatimizda g'alladan bo'shan 90,4 ming hektar maydonda kartoshka va sabzavotdan tashqari 35 ming hektariga dukkakli, 36,5 ming hektariga ozuqa ekinlari ekildi, - deydi viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi boshlig'i o'rinosari Samad Saidov. - Ushbu maydonlarning 47,6 ming hektari klassterlar va fermerlar ixtiyorida qoldi, 33 ming hektari fermer xo'jaliklarining 28,2 ming nafrasidan ishchi-a'zolariga, 9,8 ming hektari ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan 14,5 ming nafrasidan foydalgarda, jumladan, 4280 nafrasidan yoshga dehqonchilik qilish uchun ajratish berildi. Ehtiyojmand aholiga takroriy ekin va parvarishlash davrida amaliy yordam ko'rsatish maqsadiga 3981 ta klasster, ilg'or fermerlar va tayyorlov korxonalarini biriktirildi.

Takroriy ekinlarning 228 ta ekish otryadi shakllantirilib, ularga 563 ta qishloq xo'jaligi tekhnixi va 645 nafrasidan ishchi aholiga biriktirilgan ekinlarni qisqa muddatda ekin imkonini bermoqda. Ushbu tizim asosida ishshiz aholiga biriktirilgan mas'ul

yar maydonlarning ekishiga tayyorlash, ekish va agrotexnik tadbirlarni o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatilish, zarur moddiy-teknik resurslar yetkazib berdi.

Jumladan, takroriy ekin ekish uchun 50 ming tonna urug'lik, 5,9 ming tonna yoqilg'i moylash materialari, 58,8 ming tonna mineral o'g'it, jumladan, 40,7 ming tonna azot, 13,6 ming tonna fosfor va 4,5 ming tonna kaliy o'g'iti talab etilishi hisob-kitob qilingan.

Sug'orishda suv sarfini nazorat qilish maqsadida 4577 ta fermer xo'jaligining 18 mingdan ortiq hamda suv xo'jaligining tumanlardagi quyi tashkilotlaridan 1700 nafrasidan mirob va suvchilar jalb qilingan.

Joriy yilda takroriy ekinlarni ekish hisobiga viloyatda 110 ming nafrasidan ortiq aholini band qilish va kafolatli daromad bilan ta'minlashga erishiladi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, viloyatda takroriy ekinlarning 1259,7 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Jumladan, 67,4 ming tonna sabzavot, 300,1 ming tonna kartoshka, 55,3 ming tonna dukkakli, 836,3 ming tonna ozuqa mahsulotlari tayyorlanadi.

Yetishtirilgan mahsulotlarni xarid qilish uchun 44 ta eksportyor-tadbirkor, 12 ta qayta ishshiz va 45 ta tayyorlov korxonasi hamda 3 ta tomorqa xizmati korxonasi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga biriktirilib, hosilni kafolatli xarid qilish tizimi yo'lg'a qo'yildi. Takroriy ekin ekib, mahsulot yetishtirish har bir xonodon mavsumda o'rtacha 15-18 million so'm daromad qiladi. Viloyat bo'yicha 90,4 hektarda takroriy ekin ekish hisobiga 1,1 trillion so'm daromad olinishi kutilmoqda.

KARTOSHKA "IKKINCHI NON"
Raqamlarga qaraydig'an bo'sak, viloyatimiz va hatto, respublikaning boshqa hududlarida ham kartoshka yetishtirishiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Viloyatimiz iqlimi, tupoq sharoiti va va boshqa omillar hisobga olinib, yil sayin "ikkinchis"ni yetishtirishga kattaroq maydon ajarilmoqda. Joriy yilda ham g'alladan bo'shan maydonlarning 15 ming hektariga takroriy ekin sifatida kartoshka ekildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, shuncha maydonning gektaridan 20 tonnadan hosil olinganda ham qarib 300 ming tonna kartoshka yetishtirish mumkin. Bu esa viloyatimiz aholisining kartoshkaga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish bilan birga, eksport qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari orasida eng ko'p eksport qilinadigan, albatta, dukkanli ekinlar hisoblanadi. Shu bois dehqonlarimiz joriy yilda qarib 22,5 ming hektar maydonda dukkakli ekinlar ekishni rejalashtirishgan. Bunda, albatta, mosh va loviya asosiy maydonni egallaydi. G'alladan bo'shan 23,1 ming hektardan ortiq maydonda takroriy ekin sifatida ozuqa ekinlari ekildi.

Bu yilgi takroriy ekin davri dehqonlarimiz uchun o'ziga xos sinov pallasi ham bo'lmoxda. Haroratning keskin ko'tarilishi o'simliklar vegetatsiya

davriga ta'sir o'tkazgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, suv resurslarining taqchilligi bor imkoniyatdan oqilona foydalananishni taqozo etmoqda. Tajribali dehqonlar bunday sharoitda dalani kechki paytda sug'orish, suv isrof bo'lishining oldini olish muhimligini yaxshi bilishadi. Shu bois dalani tayyorlash va ekinni o'z vaqtida undirib olishga e'tibor qaratishmoqda.

SUV TANQISLIGI TEJASHGA O'RGAJATADI

Mamlakatimizning barcha hududlar

Oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirish uchun beriladigan imtiyozlardan xabardormisiz?

Keyingi yillarda abituriyentlar uchun davlat oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirishda imtiyozlar qo'llanilmogda. Ammo hamma ham kimlar imtiyozdan foydalana olishi mumkinligini bilmaydi. Keling, imtiyozlarning turlari va kimlarga berilishi haqida batafsil ma'lumot beramiz.

Imtihonsiz, qo'shimcha davlat granti asosida kimlar talabalikka tavsya etiladi?

- Harbiy qism qo'mondonligi va Yoshlar ishlari agentligi tavsyanomasi bilan har bir harbiy qismidan bir nafardon yosh harbiy xizmatchi; - xizmat vazifasini bajarish payti halok bo'lgan yoki nogiron bo'lib qolgan Qurolli Kuchlar tarkibidagi tashkilotlar harbiy xizmatchilar va Milliy gvardiya xodimlari, ichki ishlari tizimi xodimlarining farzandlari;

- Olimpiya, Paralimpika, Osiyo va Paraosyo o'yinlari, jahon championatlarida oxirgi 4 yilda g'olib bo'lgan sportchilar;

- respublika (1-o'r) va xalqaro (1-5-o'r) shaxmat va shashka turnirlarida g'olib chiqqan akademik ittseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lif maktablari bitiruvchilar;

- Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, "Nihol" mukofoti sohiblari, "Mardi g'lon" mukofoti sovordinorlari;

- "Xalq cholg'ulari ijrochilar", "Milliy raqs ijrochilar" va "Yosh maqom ijrochilar" tanlovlarinining bir nafardon g'oliblari;

- "Tarbyachi", "Hamshira" respublika tanlovi g'oliblari;

- Yoshlara ishlari agentligi faoliyatlari tavsyanomasi asosida hududiy OTMlarning pedagogika yo'nalishlariga grangta kirdiganlar;

- xalqaro fan olimpiyadalarini qolgan qolmagan qolmagan q'oliblari;

- Prezident maktabi bitiruvchilar;

Imtihonsiz, kontrakt asosida kimlar talaba bo'lishi mumkin?

- Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalarini agentligi tizimidagi ixtisoslashgan maktab bitiruvchilar;

lari kimyo, biologiya, fizika va AKT sohalariga qabul qilinadi;

- Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalarini agentligi tizimidagi ijod maktablari bitiruvchilar;

- "Zakovat" intellektual o'yini g'oliblari;

- ichki ishlari organlarida uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan profilaktika (katta) inspektorlari.

Kimlar tegishli fan bo'yicha imtiyondan ozod etiladi va ma'lum miqdorda ball beriladi?

- respublika fan olimpiadarining 1-3-o'r in sohiblari g'olib bo'lgan fani bo'yicha maksimal ball beriladi;

- chet tili bo'yicha belgilangan darajadagi xalqaro va milliy sertifikatiga ega abituriyentlar uchun shu fandan maksimal ball beriladi;

- musiga, raqs, teatr, folklor, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishi bo'yicha respublika va xalqaro tanlovlari g'oliblari mutaxassislik fanidan maksimal ball oladi;

- "Bolalar sport o'yinlari"ning g'oliblari belgilangan fan bo'yicha maksimal ball beriladi;

- umumta'lif fanlari bo'yicha sertifikatiga ega abituriyentlarga sertifikatdagi baliga mos proportional ball hamda 86 foiz va undan yugori ball to'plagan abituriyenta eng yugori ball beriladi.

To'plangan balga qo'shimcha ball beradigan imtiyoziqarayish?

- "Temurbeklar maktabi" bitiruvchilariga harbiy yo'nalishlar uchun o'zlarini to'plagan balga 30 foiz, boshqa OTMlarga topshirganda 15 foiz miqdorda qo'shimcha ball beriladi.

- o'monchilar va ularning farzandlariga OTMlarning tegishli yo'nalishlari uchun qo'shimcha 20 foizlik kvota ajratiladi;

- fuqarolarning o'zini o'zi

- O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilariga harbiy yo'nalishlar uchun o'zlarini to'plagan balga 30 foiz, boshqa OTMlarga topshirganda 15 foiz miqdorda qo'shimcha ball beriladi.

Qo'shimcha kvota doirasida kimlar tanlovida qatnashish huquqiga ega?

- Navoiy viloyatining olis cho'i hududlarida kamida 3 yildan beri yashab kelayotgan abituriyentlar Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlari uchida OTMlarga hududda 4 yil ishlab berish sharti bilan grant asosida olinadi;

- Uzon tumani Bobotog' hududidagi yoshlar uchun Surxondaryo viloyati OTMlarning pedagogika va tibbiyot yo'nalishlari qo'shimcha grant asosida kvota ajratiladi;

- Qurolli kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlar va idoralar harbiy xizmatchilarining farzandlari qo'shimcha 5 foiz, Milliy gvardiya xodimlarining farzandlari qo'shimcha 2 foiz, bojxona xizmati xodimlarining farzandlari esa qo'shimcha 2 foizli kvota asosida tanlovida ishtirot etadi;

- ichki ishlari organlari xodimlarining farzandlari uchun alohida 3 foizli kvota ajratiladi, ularga bu kvota doirasida tanlovida qatnashish uchun 3 yilga amal qiluvchi sertifikat beriladi;

- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 2 foizli kvota ajratiladi;

- mehribonlik uylari bitiruvchilar bo'lgan chin yetimlariga va SOS-bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilariga 1 foizli kvota ajratiladi;

- ijtimoiy himoyaga muhitoj xotin-qizlar uchun 4 foizli kvota ajratiladi;

- o'monchilar va ularning farzandlariga OTMlarning tegishli yo'nalishlari uchun qo'shimcha 20 foizlik kvota ajratiladi;

- fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlari xodimlari tavsyanomasi asosida "ijtimoiy ish yo'nalishiga to'lov-kontrakt asosida qo'shimcha qabul ko'satichilar doirasida qabul qilinadi;

- harbiy qism qo'mondonligi tavsyanomasiiga ega abituriyentlar o'zlarini tanlagan birinchi yo'nalishi bo'yicha tanlovida ishtirot etadi;

- o'monchilar va ularning farzandlari;

- mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin olyi ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar;

- umumta'lif muassasalarda faoliyat yuritayotgan, ish stajiga va olyi pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilariga (sirtqi ta'linda);

- bundan tashqari,

2022-2023-o'quv yilidan boshlab olyi ma'lumotga ega bo'lmagan hokim yordamchilar davlat OTMlarning iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tavsiyasiga ko'ra davlat granti asosida sirtqi ta'lim shakliga suhabat asosida o'qishga qabul qilinadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mazkur imtiyozlarni berish yoki bekor qilish Bilim va malakalarni baholash agentligi vakolatiga kirmaydi. Imtiyozlarni berish vakolatiga ega vazirlik, qo'mitalar nomididan ularning reestri yuritilib, Bilim va malakalarni baholash agentligi ma'lumotlar bazasiga yuboriladi. Agentlik mazkur reestrlardagi ma'lumotlar asosida kirish imtiyozlari ishtirot etgan abituriyentlarga keltirilgan hujjalari bo'yicha imtiyoziqarayish qo'llanilishini amalga oshiradi.

Bahrom ISLOMOV, Bilim va malakalarni baholash agentligi viloyat shu'basi xodimi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Urgut tumanidagi "URGUT MEGA CITY" mas'uliyati cheklangan jamiyat (STIR: 305459721) o'z ustav fondini 775 769 921 (etti yuz yetmish bes million yetti yuz oltimish to'qqiz ming to'qqiz yuz yigirma bir) so'mdan 376 269 921 (uch yuz yetmish olti million ikki yuz oltimish to'qqiz ming to'qqiz yuz yigirma bir) so'mga kamaytirmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Urgut shahri Navbog' mahallasi, Qoratopa ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ruziyeva Zulfiya Nurgaliyevnaga (2022-yil 23-novabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirbegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Usmonov Tolib Adashovichga (2018-yil 9-iyundan vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Djurakulova Dilshoda Taxirovnaga (2021-yil 9-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Shamsiddinov Sherdon Shobidovicha (2013-yil 30-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Xidaykulov Kadirga (2017-yil 25-iyundan vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chebak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Malayeva To'tiga (2021-yil 29-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqandda yashab ijod qilgan ustozlardan biri tarix fanlari nomzodi, dotsent Qarshiboy Kubakov o'zbek etnografiya ilmiy maktabi asoschilaridan. U o'zidan boy va samarali ilmiy maktab qoldirdi.

Samarqand elshunoslari sardori edi



Taniqli o'zbek elshunos olimi Qarshiboy Kubakov 1939-yil 29-iyulda Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi Moltop qishlog'ida tug'ilgan. Kubakov ajododlari qirq urug'ining moltop guruhiha mansub bo'lib, hozir Moltop etnotoponim sifatida qo'llaniladi. U dastlab 1947-yilda o'z qishlog'ida to'liq, keyin Lalmikor qo'rg'onidagi o'rta maktabni bitirdi. So'ngra ro'zg'orni tebratish uchun jamoas xojaligida traktorchi bo'lib ishladi.

1959-1962-yillarda armyida xizmat qilgach, Samarqand davlat universitetining tarix fakultetida tahsil oldi. U a'lochi va jamoatchi talaba sifatida fakultet va universitet hayotida yoshlar yetakchisi sifatida faol qatnashdi.

1967-1969-yillarda sobiq ittifoq Fanlar Akademiyasi Maklay nomidagi Etnografiya institutida stajirovka bo'lib, taniqli elshunoslardan zaur ilmiy maslahatlar oldi. Ayniqsa, professor B.Karmisheva unga ko'proq ilmiy-amaliy yordam berdi va Samarqand viloyati bo'yilab Nurota turkmankari etnografiyasini o'rganish bo'yicha ekspeditsiyalarda birlgilikda qatnashdi. Qarshiboy domla Etnografiya institutining Samarqand va Jizzax vo'hohlaridagi ekspeditsiyalarda faol ishtirot etdi.

Q.Kubakov 1970-yilda O'ZFA Tarix instituti etnografiya bo'limi aspiranturasiiga o'qishga kirdi. O'sha yili tarix fanlari doktori K.Shoniyozov rahbarligida "XIX as oxiri – XX asr boshlarida yuqori Qashqadaryo qishloq aholisining etnik tarkibi" mazusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi.

Tarix fanlari nomzodi Q.Kubakov 1973-yildan Samarqand davlat universitetining tarix fakulteti arxeologiya kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishladi. 1982-yilda dotsent ilmiy unvonini

"SAMARQAND IPAK YO'LISI" MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!
Samarqand shahridagi "SAMARQAND IPAK YO'LISI" ma'suliyati cheklangan jamiyatni ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 20-avgust kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi. Ushbu hisobot yig'ilishiga barcha ta'sischilar va qiziquvchi tashkilotlari rahbarlari taklif etiladi.

KUN TARTIBIDA:

- O'zbekiston Respublikasining "Korporativ boshqaruviz tizimi yanada takomillashtirilishi munosabili bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagagi PQ-101-son qarori talablaridan kelib chiqib, davlat ishtirotidagi korxonalarining ta'sis qo'shi bo'yicha hujjalari qo'shimchalar kiritish masalasi;

- Jamiatining "Ilroya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to'g'risida"gi nizomini tasdiqlash;

- Jamiatda kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini bekor qilish masalasi.

Manzil: Samarqand shahri To'raqul Zehniy ko'chasi, 10-uy.
JAMIyat MA'MURIYATI.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilov

